

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**“XALQ MAQOLLARI NAZARIY
TADQIQINING DOLZARB
MUAMMOLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami**

2025-yil 19-sentabr

Buxoro

Tahrir hay'ati:

1	O.X.Xamidov	Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais
2	K.A.Samiyev	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini
3	N.Z.Sayfullayeva	Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent, a'zo
4	M.Sh. Shirinova	Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent, a'zo
5	D.Z. Rajabov	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.d., professor, a'zo
6	B.E. Kilichev	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini mudiri, f.f.d., professor, a'zo
7	M.A.Xudoyqulova	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti yetakchi mutaxassisi, p.f.f.d., dotsent, a'zo
8	S.M. Usmonova	Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti yetakchi mutaxassisi, a'zo
9	B.M.Jo'rayeva	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori
10	D.D.To'ymurodov	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini tayanch doktoranti
11	M.E.Jumayeva	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini o'qituvchisi
12	D.A.To'xtayeva	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini o'qituvchisi

Mas'ul muharrir:

B.M.Jo'rayeva – filologiya fanlari doktori, professor.

Musahhih:

D.D.To'ymurodov – O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini tayanch doktoranti

M.E.Jumayeva – O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini o'qituvchisi

D.A.To'xtayeva – O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini o'qituvchisi

To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

G.I. Abduraxmonova	“Qora” leksemasi ishtirokidagi frazeologik va paremiologik birliklar semantikasi va “qora” leksemasining badiiy-tarixiy asarlardagi semalari.....251	190
Sh.N.Axmedova	Adabiy tanqidda badiiy matnga estetik baho berish haqida	192
R.O. Shiraliyeva	The role of numerals in expressing indefiniteness	193
J.D.Sultanova	Xorazm shevalari va maqollarda milliy ruhning ifodalanishi	196
F.T. Xazratqulova	Flora konsepti asosidagi frazeologizmlar: semantika, madaniy kod va tarjima muammolari	198
A.A.Navro‘zova	Sodda gaplarda ko‘p nuqtaning pragmatik ahamiyati	200
S.Otaxonova	Antroponimlarning kommunikativ vazifalari va adabiy matn qurilishiga ta’siri	202
N.N.Novruzova	Qo‘qon shoiralari ijodida hasbi hol g‘azallarning badiiy talqini..270	204
N.Sh. Rashitova	Ilmiy va badiiy diskursda abstrakt nomlarning mental reprezentatsiya xususiyatlari	206
G.F.Yoqubova	Ingliz bolalar folklor qo‘shiqlarining o‘rganilishi tarixi	208
Z.M. Nizomova	Leksik tipologiya va lemmatizatsiyaning terminologik tizimlarni shakllantirishdagi o‘rni	211
A. M. Шаронов, E. A. Шаронова	Своеобразие эрзянских эпико-героических сюжетов	214

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

P.R. Bobokalonov	Milliy ong, tolerantlik, til va nutq masalalari	226
S.S.To‘rayeva	Maqollar vositasida o‘quvchilarda etnopedagogik kompetentlikni shakllantirish usullari	229
N.Z. Payziyeva	Hikoya janrida adabiy ta’sir masalasi (Nazar Eshonqul va Frans Kafka hikoyalari misolida)	233
Sh.O‘.Ibodullayeva	Shayx Ahmad taroziyning “Funun ul-balog‘a” risolasida juzvlar tahlili	235
B.R. Hamidova	Konversiyaning qo‘shimchalarda namoyon bo‘lishi	237
N.I. Adizova	Turizmga oid matnlar tadqiqi va unda semantikaning berilishi(korpus tahlili asosida)	238
D.B.Jumayeva	Punktuatsion qoidalar va kompyuter lingvistikasi	241
Sh.I. Umarova	Sintagmatik qarashlarning rivoji va g‘arb tilshunosligidagi nazariy asoslar	243
M.O‘.Siddiqova	O‘zbek kompyuter lingvistikasining dolzarb masalalari va istiqbollari	244
S.O.Mardonova	Individual neologizmlarning metaforik xususiyatlari	246
M.I. Sotvoldiyeva	Inson fiziologiyasi bilan bog‘liq metaforalar	248
N.I. Xolmatova	O‘zbek tilshunoslogida xushmuomalalikni o‘rganishda turli yondashuvlar	251
Z.I. Tursunova	Yuridik diskursdagi o‘ziga xos leksik birliklar	253
R.H.Muslixiddinova	Afaziya tipologiyasi va broka afaziyasi bo‘yicha kuzatuvlar	256
D.K. Qodiraliyeva	Bilim va bilimsizlik obrazlarida milliy stereotiplarning namoyon bo‘lishi	257
B.T. Yunusaliyev	Some thoughts on objective and subjective modality	259
M.O.Xayrullayeva	Vobkent toponimi va tuman tarixi	260
A.R. Muhammadov	G‘anijon Abdurahmonovning fonetik merosi: nazariy qarashlari va ilmiy izlanishlari	262
M.F.Furqatova	O‘zbek tilshunosligi va sun‘iy intellekt: yangi istiqbollar	264
K.A.Qarshiyev	G‘azal janrining poetik transformatsiyasi xususida Jamol Kamolning “Zamzama”lari misolida)	266

2. Lingvistik resurslar: tilga qarashli bo'lgan ma'lumotlar bazasidan tashkil topgan bo'lib korpuslar, lug'at, lingvistik analizatorlar kiradi. Lingvistik resurslar omlin shaklda yoki avtonom ko'rinishda bo'lishi mumkin.

3. Qayta ishlangan resurslar: bu resurslar nutqni o'quvchi tizim, grammatikani tekshiruvchi vositalar, so'zlarni oldindan topish dasturi, qidiruv tizimi, imloni tekshiruvchi vositalar, sintaktik analizatorlardan iborat bo'ladi.

90- yillarda morfologik tahlil generativ model, paradigmatic model, ikki tarkibli morfologik model¹ singari metodlarga asoslanadi. Turkiy tillar borasida morfologik analizator yaratish masalash XX asrning 60-yillaridan boshlandi. O'sha vaqtdan boshlab bir qator tadqiqotlar yaratildi. Masalan, tatar tilining morfologik analizatori uch modelga asoslanadi: generativ, paradigmatic va ikki bosqichli model. Morfologik tahlil sintaktik tahlil uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki avtomat usulda matnni komponentlarga bo'lishda u yoki bu so'zning qaysi so'z turkumida ekanligini aniqlash lozim.

O'zbek tilshunosligida o'zbek tilining morfologik annotatsiyasini yaratish maqsadida chekli avtomat transyuteridan foydalanildi va uning avtomatik morfotaktik bazasi hosil qilindi. Ikkinchi bosqichda esa morfotaktik ma'lumotlar tahrirlandi, uchinchi bosqichda yig'ilgan korpus asosida amalga oshirilgan morfologik analizator tekshirildi. Morfologik tahlilda bir qator fonetik hodisaga uchragan so'zlarimiz mavjudki, bunday so'zlarni tahlil qilishda ham bir qator yechim va algoritmlar mavjud. Shu bilan bir qatorda o'zbek tili leksikografiyasida ham bir qator yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Xususan ma'lumot bazasining yetarli emasligi, standartlashtirish muammosi, ko'p tillilik muammosi, ya'ni o'zbekcha-ruscha, o'zbekcha-inglizcha lug'atlar mavjud, ammo boshqa tillar bilan lug'at borasida muammolar bor. Dasturiy interfeyslar ko'p hollarda foydalanuvchi uchun u qadar qulay shaklda emas. Yaqin yillar oralig'ida kompyuter lingvistikasi sohasi oldida turgan bbir qator vazifalar mavjud. Avvalo milliy til korpusini yaratmoq lozim. Zamonaviy morfologik va sintaktik analizatorlar yaratmoq kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonova N. Zamonaviy lingvistik korpuslarning kompyuter modellari. Foreign Languages in Uzbekistan, 2020, No 1(30), 50-58 [https:// journal. Fledu.uz](https://journal.fledu.uz) ISSN: 2181-8215(online)
2. A. Eshmuminov. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (Phd)... dis.avtoref.. –Toshkent, 2019
3. Пўлатов , А.Қ. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011.-500 б;
4. Пўлатов, А. Қ. Компьютер лингвистикаси / Масъул муҳаррирлар; А.А.Абдуазизов, М.М. Орипов. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 520 б. – Б. 7.

INDIVIDUAL NEOLOGIZMLARNING METAFORIK XUSUSIYATLARI

*Mardonova Sarvinoz Oripovna,
O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası o'qituvchisi f.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada metafora hodisasi, mazkur hodisa tadqiqi, metaforaning til va nutqqa munosabati, she'riyatidagi metaforalar, xususan, muallif nutqi metaforalari, ularning ifodasi shoirlar ijodidan olingan she'riy parchalar orqali ochib berilgan. Sememaning ijtimoiyligi va nutqiy ma'noning individualligi

Kalit so'zlar: leksik ma'no, sema, metafora, an'anaviy metafora, muallif nutqi metaforalari, o'xshatish, metonimiya, individual metafora.

¹ Mahlov S., Piotrowski M. JSLM – COMPUTATION Morphology in the framework of the SLIM Theory of language / State of the art Computation Morphology. Zurich, -P.15

O'zbek tilida metafora hodisasi va uning vujudga kelishi asoslari xususida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek tilida metaforalar, ularning tabiati, yondosh hodisalarga munosabati haqidagi monografik plandagi ishlarning mavjudligi mazkur hodisa, ular atrofidagi muammolar yechimiga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, metaforalar so'zlar kabi o'z lingvopoetik xususiyatiga ko'ra doimiy (uzual) va individual metaforalarga bo'linadi. Har ikkala hodisa ham konnotativ ma'no bilan bog'liq. Badiiy matnda so'zdagi konnotatsiya muhim, bu konnotativ ma'noni harakatga keltirish ijodkor mahorati bilan bog'liq [6, 32].

Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagidan biri sabab bo'ladi:

1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi.

Demak, birinchi holda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, *quyi* so'zi anglatadigan ma'noni *etak* so'zi qulayroq va to'laroq ifodalaganligi bois tog'ning quyi tomoniga nisbatan *etak* so'zi ishlatilgan. O'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jug'rofiy o'rinning nomi bo'lmaganligi bois *qo'litiq* so'zi unga nisbatan ham qo'llanadi.

Metafora hodisasi asosan, ot va fe'lda uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida *uchmoq* fe'li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvozigacha o'xshaydi. Shu boisdan *uchmoq* fe'li ifodalagan keyingi ma'no metaforik ma'no.

Metafora hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi. Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani – sememaga aylangani nisbatan kam. *Qanot* (samolyotning qanoti), *og'iz* (qopning og'zi) kabi leksemalarning ushbu hosila ma'nosi metaforik semema. Metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan semema davrlar o'tishi bilan o'ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil holga kelishi, omonimik tabiatga ega bo'lishi mumkin.

Muallif nutqi metaforalari uzual metaforalar singari o'xshatishga tayanadi. Sir emaski, o'xshatish (sifatlash, epitet) badiiy matnda obrazlilik, ifodaviylikni ta'minlovchi eng qadimgi tasviriy vositalardan biri sanaladi. O'xshatishda to'rt unsur (o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi, o'xshatish vositasi) nazarda tutiladi. Masalan, Usmon Azimning "*Porlar quyosh – Barchinday bir qiz*" misrasida muallif nutqi o'xshatishi kuzatilib, mazkur o'rinda o'xshatishning to'rt unsuri – o'xshatish subyekti (quyosh), o'xshatish etaloni (Barchinday qiz), o'xshatish asosi (Barchinning go'zalligi), o'xshatish vositasi (-day) yaqqol kuzatiladi.

Muallif nutqi metaforalari, odatda, subyektiv sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Til me'yorlariga mos holda yaratilgan individual nutq metaforalari matnda obrazlilik va ifodaviylikni ta'minlash bilan birga, lug'at qatlamimizning turli ma'no ifodalar bilan boyishiga ham xizmat qila oladi. Badiiy asarda ijodkor tomonidan badiiy niyatini ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual metaforalar yuqori estetik qiymatga ega bo'ladi. Ijodkor tomonidan yaratilgan ko'chimlar, asarda individual badiiyat uchun xizmat qiluvchi metaforalar (individual metaforalar) ham perifraza, oksyumoron, jonlantirish va h.k.lar kabi individual poetik vositalardan biri bo'la oladi.

Kuzatishlar ko'rsatdiki, individual nutq metaforalari metaforaning bir ko'rinishi sifatida, odatda, ikki turda uchraydi: a) to'g'ridan to'g'ri, o'xshatish vositalarsiz hosil bo'lgan individual metaforalar; b) o'xshatish vositalari bilan hosil bo'lgan individual metaforalar. Yana bir dalil ahamiyatliki, ko'pgina individual metaforalar epitet sifatida (ot turkumidagi so'zning belgi ifodasi uchun qo'llanishi sifatida) yuzaga kelganligini kuzatamiz.

Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilish murakkabroq bo'lgan tushunchalarini oydinlashtirishdan iboratdir. Bunda muayyan bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat va holat o'quvchi uchun betakror, go'zal ifodalar bilan namoyon etiladi.

Individual metaforalar she'riyatda muhim o'ringa ega, chunki asil badiiy ma'no individuallikning ko'rinishi, uning tub asosi hisoblanadi. Buning isboti sifatida iste'dodli shoir Usmon Azimning birgina dunyo so'ziga nisbatan 80 ga yaqin sifatlovchi so'z qo'llagani, ularning katta qismi individual metaforalar ekanligini keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardagi yangi epitettar (nutqi konnotatsiya) okkazonal bo'lib, o'quvchida ijodkor jimjimadorlikka berilgandek taassurot uyg'otishi mumkindir. Ammo ilhomlangan ijodkor doim ham lug'at qatlamidagi mavjud ko'chimga ko'na qolmaydi.

Muallif nutqi metaforalari Usmon Azim she'riyatidagi quyidagi ifodalarda ham kuzatiladi:

1. *Qor – billurtan farishta.* (“Qor”)
2. *Bu dunyoning ismi gulmas,*
Puldunyodir bu dunyo. (“Eski qo'shiq”)
3. *Azizlik taxtidan tushgan azizim,*
Zulmatgoh xonaning ichida yorim. (“Azizlik taxti”)
4. *Chizavergin iymonimni.*

Imongoh yurak oppoq. (“Yurak”)

Mazkur misollarda *qor – billurtan farishta, puldunyo dunyo, zulmatgoh xona, imongoh yurak* kabilarni individual metaforalar sifatida baholash mumkin.

Ko'rinadiki, Usmon Azim ijodidagi yangi ko'chimlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga qo'l kelgan. Shoir polisemantik so'zlardan samarali foydalanib, ular ma'no imkoniyatini kengayishiga ham ma'lum darajada hissa qo'shdi. Mazkur ko'chimlar matnga betakror jarangdorlik va musiqiylik, go'zallik va xalqchilik baxsh etgan. Umuman, Usmon Azim ijodida tuyg'ular ta'sirchanligi va obrazlar teranligini ta'minlashda individual metaforalar alohida o'rin tutgan.

Xullas, badiiy adabiyotda o'rinli, jo'yali, topib aytilgan tasvir, ko'chim – muallif nutqi (individual nutq) metaforalari o'zining emotsionalligi, ta'sirchan va ifodaviyligi, shuningdek, badiiyat va obrazlilikni ta'minlashdagi ahamiyati bilan alohidalik kasb etadi. Shoir Usmon Azimning muallif nutqi metaforalari ta'sirchanligi, “ohorli”ligi, ifodaviyligi, betakrorligi bilan alohidalik kasb etishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўз. мил. энцик давлат нашриёти, 2002.
2. Кошғарий М. Дувону луғатит турк. 3 жилд. С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент, 1960-1963.
3. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд, 2006.
4. Мадрахимов И. Сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НДА. – Тошкент, 1993.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
6. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Тошкент, 2009.

INSON FIZIOLOGIYASI BILAN BOG'LIQ METAFORALAR

Sotvoldiyeva Muattarxon Ikromjon qizi,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson fiziologiyasi bilan bog'liq metaforalar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Metafora tilshunoslik va kognitiv fanlarda inson tafakkurining muhim mexanizmi sifatida qaralib, fiziologik jarayonlar – yurak urishi, miya faoliyati, nafas olish, qon aylanishi hamda boshqa tana a'zolari misolida ko'rib chiqilgan. Yurak sevgining va sadoqatning ramzi, miya – tafakkur va axborot qayta ishlash markazi, nafas – hayot va ozodlik timsoli, qon esa – hayot manbai va ijtimoiy aloqalarning ramzi sifatida tahlil etiladi. Shuningdek, metaforalarning ilmiy, madaniy va badiiy kontekstlarda qo'llanilishi ochib beriladi. Maqola